

2024 ЖЫЛ - ЖАСТАР ЖӘНЕ КӘСІПКЕРЛІКТІ
ҚОЛДАП-ҚУАТТАУ ЖЫЛЫ

Кенимех

Ырыс алды-
ынтымақ

Кенимех ауданы әкімдігінің
әлеуметтік-саяси газеті

Газет 1930 жылдан шыға
бастаған

29 қаңтар 2024 жыл №1 (8226)

Таңы

XALQ DEPUTATLARI KONIMEX TUMAN
KENGASHINING QARORI

2024 - yil 10 - yanvar

VI-70-1-5-70-K/24

Konimex tuman hokimligi

Konimex tumani bo'yicha 2024-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i stavkalarini hamda mol-mulk solig'ini hisoblashda qo'llaniladigan eng kam qiymatni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 412-, 429- va 437-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining tegishli xatiga asosan Navoiy viloyati bo'yicha yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlari va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer soliqlarining 2024-yil uchun soliq stavkalarini hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkli uchun mol-mulk solig'ini hisoblashni tartibga solish maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 412-, 429- va 437-moddalariga asosan 2024-yilda viloyat bo'yicha yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligida mo'ljallanmagan yerlarini bazaviy soliq stavkasi mutlaq miqdori 1 gektar uchun 36,0 mln.so'm, jismoniy shaxslar yerlarining 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi mutlaq miqdori 320,0 so'm hamda yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan, yashashga mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda 1 kv.metr uchun eng kam qiymati belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi

(I.M.Beknazarov) hamda tuman soliq inspeksiyasi (R.Tursunov)ning hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo'yicha 2024-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig'i stavkalarining mutlaq miqdorlariga hamda yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan, yashashga mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda belgilangan eng kam qiymatga nisbatdan kamaytiriluvchi koeffitsiyentlarni qo'llash bo'yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Tumanning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha 2024-yilda Konimex tumani uchun mutloq miqdorda belgilangan yer solig'ining bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga, jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) 2024-yilda Konimex tumani uchun mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari hamda yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan, yashashga mo'ljallanmagan ko'chmas mulk

obyektlari uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda 2024-yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2024-yilda belgilangan yer soliq stavkalarini joriy yilning 31-dekabriga qadar hududlardagi soliq organlariga taqdim etilishini ta'minlasin.

5.Tuman hokimligi ushbu qaror bilan ma'qullangan Konimex tumani bo'yicha 2024-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i stavkalarini hamda mol-mulk solig'ini hisoblashda qo'llaniladigan eng kam qiymat bo'yicha ma'lumotlarni "Kenimex tanu" gazetasida hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e'lon qilsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrda VI-54-187-5-70-K/22 sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Saitovning va Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

R. RO'ZIYEV.

ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ХУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИ ПРОКУРАТУРА
ОРГАНЛАРИ НАЗОРАТИДА



Мамлакатимизда тadbirkorlikni rivojlantirish va uning huqukiy ximoyasini ta'minlash – amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy iynalihi hisoblanadi. Zero, tadbirkorlik rivoji – yurtimiz va iqtisodiyatimiz taraqqi'eti garovidir.

Shu bois, yurtimizda iqtisodiy-ijtimoiy va huqukiy sohalarni islox etish, erkin tadbirkorlik faoliyatini qaror topitirish borasidagi islohotlar mantiqiy izchillikda

bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

Shu asnoda tadbirkorlikni har taraflama q'llab-quvvatlash hamda ular faoliyatidagi t'siqlar bartaraf etilishini ta'minlash borasida Navoiy viloyat prokuraturasi organlari

tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi.

U'tgan 2023 yilda prokurorlar tomoni-

Davomi 3-betda.

Tumanning 2024 yilgi tumanning yalpi hududiy mahsulot bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari		
№	Ko'rsatkichlar	2024 yil uchun prognoz
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so'm	X
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	X
3.	Ist'emol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	X
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	108,7
5.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	103,0
6.	Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati, foizda	108,5

2-ilova

Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari		
T/R	Daromad turlari	Miqdori (ming. so'm)
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	0,0
2	Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	0,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	12 579 200,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	0,0
5	Qo'shilgan qiymat solig'i	0,0
6	Aksiz solig'i, jami <i>shu jumladan:</i> - benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq	
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 604 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig'i	0,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	2 916 000,0
11	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	9 117 000,0
13	Davlat boji	0,0
14	Jarimalar	0,0
15	Ijara to'lovi	0,0
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0
17	Yig'imlar	0,0
JAMI	Daromad	26 216 200,0

3-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarining umumiy cheklangan miqdorlari		
№	Ko'rsatkichlar Xarajatlar miqdori, <i>shu jumladan:</i> <i>joriy xarajatlar</i> <i>ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va</i>	Miqdori (ming so'mda) Jami 127 080 858,0 127 080 858,0

	<i>jihozlash uchun kapital qo'yilmalar</i> <i>Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga transfertlar</i>	0,0 0,0
1	Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi <i>shu jumladan:</i> - maktabgacha ta'lim - umumiy ta'lim	20 994 342,0 7 144 376,0 13 849 966,0
2	Sog'liqni saqlash <i>shu jumladan:</i> joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	51 181 939,0 51 181 939,0
3	Tuman Madaniyat va turizm bo'limi <i>shu jumladan:</i> joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 745 747,0 1 745 747,0
4	Tuman Jismoniy tarbiya va sport bo'limi <i>shu jumladan:</i> joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	2 623 223,0 2 623 223,0
5	Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi <i>shu jumladan:</i> joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	2 001 046,0 2 001 046,0
6	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi <i>shu jumladan:</i> joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	3 365 592,0 3 365 592,0
7	Tuman Irrigatsiya bo'limi <i>shu jumladan:</i> joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 140 604,0 1 140 604,0
8	Tuman soliq inspeksiyasi <i>shu jumladan:</i> joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	3 059 337,0 3 059 337,0
9	Tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi <i>shu jumladan:</i> joriy xarajatlar ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	135 091,0 135 091,0
10	Konimex tuman Obodonlashtirish boshqarmasi <i>shu jumladan:</i> joriy xarajatlar Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarni ta'mirlash xarajatlari	19 078 841,0 15 078 841,0 4 000 000,0
11	Tuman iqtisodiyot va bo'limi <i>shu jumladan:</i> joriy xarajatlar	1 951 225,0 1 951 225,0
Davomi 3-betda.		

Davomi. Boshlanishi 2-betda.

12	shu jumladan: saqlash xarajatlariga Fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash Viloyatdan tuman va shahar mahalliy byudjetlariga beriladigan transfertlar Indeksatsiya mablagʻlari obʻektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	1 951 225,0
	Yoshlar ishlari agentligi tuman boʻlimi shu jumladan: joriy xarajatlar	1 816 147,0
13	obʻektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	1 816 147,0
	Tuman hokimligi shu jumladan: joriy xarajatlar	17 573 624,0
14	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	2 282 984,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini oʻtab boʻlgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy- moddiy yordam paketi»	21 000,0
	Hokimliklarning zahira jamgʻarmalari	1 149 175,0
	Xalq qabulxonasi	96 882,0
	Xokim yordamchilari	1 647 507,0
	Tuman oila va xotin qizlar boʻlimi	1 070 184,0
	Tuman Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	235 469,0
	Tuman ijtimoiy koʻnikma markazi	56 242,0
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	11 014 181,0
	«Mahalla byudjeti» jamgʻarmasi mablagʻlari	414 100,0

4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga
ajratmalar meʼyori

Foiz hisobida

	Shaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Qurilish materiallari boʻyicha yer qatidan foydalanganlik uchun soliq
1	Konimex tumani	100	10	10	100	100

ЯНВАРЬ-ДЕКАБРЬ ОЙЛАРИДА

ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ
КЎРСАТКИЧЛАРИ

Тахлил натижаларига кўра 2024 йилнинг 1 январь ҳолатига тумандаги саноат корхоналари томонидан 731.6 млрд сўмлик (аҳоли жон бошига 19564.4 минг сўм) саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилиб, бу кўрсаткич ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 106.4 фоизни ташкил этди.

Шу билан бир каторда туманда ишлаб чиқарилган истеъмол маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмлари 98.4 млрд сўм (106.4 фоиз) ни ташкил этди.

Шунингдек, жорий йилнинг январь-сентябрь ойларида 1083.5 млрд сўмлик (аҳоли жон бошига 28976.6 минг сўм) қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарилиб (етиштирилиб), бу кўрсаткич 2022 йилнинг мос даври-

га нисбатан 104,3 фоизни ташкил этди.

Худди шундай, туманга жами молиялаштириш манбалари ҳисобидан 1082.1 млрд сўмлик (2.0 м фоиз) (аҳоли жон бошига 28932.6 минг сўм) асосий капиталга инвестициялар киритилди.

Туманда фаолият юритаётган қурилиш соҳасидаги корхоналар томонидан 203.3 млрд сўмлик (100.2 фоиз) (аҳоли жон бошига 5435.3 минг сўм) қурилиш ишлари бажарилган.

Хизматлар соҳасида 250.9 млрд сўмлик (111,4 фоиз) (аҳоли жон бошига 6709,0 минг сўм) хизматлар кўрсатилган.

Жумагали КУРБАНБАЕВ,
туман Статистика бўлими
бошлиғи.

5-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy byudjeti
daromadlar va xarajatlar prognoz koʻrsatkichlari

mln. soʻmda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	26 216 200,0	127 080 858,0
Konimex tumani	26 216 200,0	127 080 858,0

6-ilova

Tuman mahalliy byudjetining 2024 yilgi yuqori
byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi
byudjetlararo transfertlar miqdorlari

Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori (ming soʻmda)	shundan, aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratiladigan mablagʻlar
JAMI	100 864 658,0	6 419 888,0
Konimex tumani	100 864 658,0	6 419 888,0

7-ilova

Tuman mahalliy byudjetining shaxsiy gʻazna
hisobvaraqlarida turgan byudjet mablagʻlarining
yoʻl qoʻyiladigan eng kam mablagʻlar miqdori

T/r	Hudud nomi	Miqdor (ming soʻmda)
	JAMI	347 749
1	Konimex tumani	347 749

ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА
МАНФААТЛАРИ ПРОКУРАТУРА
ОРГАНЛАРИ НАЗОРАТИДА

Davomi. Boshlanishi 1-betda.

дан ўтказилган ўрганишлар ва мониторинглар давомида 2462 нафар тадбир-корларнинг муаммолари ҳал этилиб, шундан 508 нафарининг коммуникация тармоқларига уланишида, 36 нафарига ер майдон-лари ва бино ажратилишида ҳамда рухсатномалар олиб берилишида, 1468 нафар тадбиркорга бошқа масалаларда амалий ёрдамлар кўрсатилиши таъминланди.

Тадбиркорликни жадал ривожлантириш учун уларнинг кредит ресурсларидан фойдаланишини кенгайтириш, бизнес муҳитини яхшилашда муҳим аҳамият касб этади.

Бу борада вилоятда амалга оширилган ишларга эътибор қаратадиган бўлсак, 2023 йилда тижорат банклари томонидан 25,7 минг нафар тадбиркорга жами 2,9 трлн сўмлик кредитлар ажратилган.

Шахсан вилоят прокуратурасининг кўмаги билан 450 та тадбиркорлик субъектларига 70 млрд сўм кредит маблағлари ажратилиши таъминланди.

Вилоят прокуратураси органлари томонидан ишчи гуруҳи билан ҳамкорликда амалга оширилган ўрганишлар натижаларига кўра, фаолиятини тўхтатган, лекин

амалда фаолиятини тиклаш ва ривожлантириш имкони мавжуд бўлган 524 та тадбиркорнинг фаолияти тикланиши таъминланди.

Тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва улар сонини ошириш борасида олиб борилган ишлар натижаларига кўра, жами 281 та янги кичик бизнес субъектлари рўйхатга олинди.

Мазкур соҳада амалга оширилган самарали ишлар натижасида, вилоятда тадбиркорлик субъектлари сони ўтган йилдагига нисбатан 2,2 минг нафарга ошди.

Бир сўз билан айтганда, кичик бизнес ва хусусий тадбир-корликни жадал ривожлантириш борасида амалга оширилаётган чора-тадбирлар самараси ўлароқ, тадбиркорлар учун янада қулай шарт-шароитлар яратилмоқда, янги иш ўринлари ташкил этилмоқда, пировардида, халқимиз турмуш даражаси юксалиб бормоқда. Бу, ўз навбатида, мамлакатимизнинг гуллаб-яшнаши ва тараққиётига ўзига хос ҳисса бўлиб қўшилмоқда.

А. НУРМАТОВ,
Вилоят прокуратураси
10.3-бўлим прокурори, 1-даражали юрист.
Ў. НОРМУРОДОВ,
туман прокурори ёрдамчиси.

MAJBURIY TEXNIK KO‘RIKDAN O‘TKAZISH JADVALI

No	Transport vositasining tegishliligi	Tex.ko‘rikdan o‘tkazish vaqti	Tex ko‘rikdan o‘tkazish joyi	Transport vositalari soni
1	“Konimex-Ekspress” MChJ	10-00dan18-00gacha	Joyida	11
2	Saribel –sur korakul mchj	10-00dan18-00gacha	Joyida	5
3	Navoiy viloyati “Suvoqova” DUK			
4	Konimex tuman filiali	10-00dan11-00gacha	TYFUK	2
	Tuman TYFUK			
	(Yo‘l qur.boshqarmasi)	10-00dan18-00gacha	Joyida	19
5	Tuman Xokimligi	10-00dan11-00gacha	TYFUK	11
6	Konimex sarjal kosay mchj	10-00dan18-00gacha	Joyida	7
7	Tuman “Obodonlashtirish” boshqarmasi	10-00dan16-00gacha	TYFUK	10
8	Tuman O‘rmon xujaligi	10-00dan12-00gacha	Joyida	4
9	“Konimex-delta” XK	10-00dan11-00gacha	TYFUK	4
10	“Manzur-Teks” MChJ	10-00dan18-00gacha	Joyida	6
11	“Maxalla” xayriya jamoat fondi	10-00dan10-00gacha	TYFUK	1
12	Avaz f/x	10-00dan10-00gacha	TYFUK	1
13	“Konfayz-Lochin” MChJ	10-00dan11-00gacha	TYFUK	6
14	Tuman Veterinariya laboratoriyasi	10-00dan11-00gacha	TYFUK	1
15	“Abdiraim avlod” XF	10-00dan11-00gacha	TYFUK	1
16	Toyir jamol f/x	10-00dan11-00gacha	TYFUK	2
17	Qishloq va suv xujaligi	10-00dan11-00gacha	TYFUK	1
19	Shoxsanam Munavvar	12-00	TYFUK	2
20	Qorakul uchtepa sur mchj	10-00dan11-00gacha	TYFUK	13
21	Toza xudud	10-00dan11-00gacha	TYFUK	5
22	Yangi g‘azg‘on nuli diyor mchj	10-00dan11-00gacha	TYFUK	9
23	Gujumli vater	10-00dan11-00gacha	TYFUK	1
24	Tuman markaziy shifoxona	10-00dan11-00gacha	TYFUK	11
25	Irrigatsiya	10-00dan11-00gacha	TYFUK	2
26	Aknur MChJ	10-00	Uzida	1
27	Aholi bandlik markazi	10-00		1
28	Uchqun Norqul f/x	10-00dan11-00gacha	TYFUK	2
29	Yangig‘azg‘on x/f	10-00dan11-00gacha	TYFUK	2
30	Suxrob gold o/k	10-00dan11-00gacha	TYFUK	1
31	Navoiy uran	10-00dan11-00gacha	TYFUK	392
32	Qizilqum fasforit DUK	10-00dan11-00gacha	TYFUK	50
34	Eltay-kumush-sur maskani	10-00dan11-00gacha	TYFUK	7
35	Xalk ta‘limi bulimi	10-00dan11-00gacha	TYFUK	2
36	Navoiy korakul uyushmasi	10-00dan11-00gacha	TYFUK	1
37	Vatanparvar	10-00dan10-00gacha	TYFUK	8

G‘. SHODMONOV.

Konimex tuman IIB JXX YHXG katta inspektori, mayor.

АҲОЛИНИ РЎЙХАТГА ОЛИШ ТАДБИРИ ИЛК БОРА ЎТКАЗИЛГАН ДАВЛАТЛАРНИ БИЛАСИЗМИ?

Одамлар ҳисобини юритиш амалиёти илк бор милoddан аввалги III минг йилликдан бошланган. Бу жараён дастлаб Осиё ва Африка давлатлари, Миср, Месопотамия, Ҳиндистон, Хитой ва Японияни қамраб олган. Бу ислохотдан кўзланган мақсад солиқ тўловчилар ва аскарликка яроқли аҳоли сонини аниқлаш бўлган.

Илк ўрта асрларда мазкур тартибот бирмунча такомиллашган. Аҳолини ҳисобга олиш элементлари хўжаликларнинг ёзма китоблар, кадастрлардаги тавсифлари билан уйғунлашган. Уларда одамлар ёки оилалар эмас, балки уй-жой каби солиққа тортиш бирликлари биринчи ўринга қўйилган.

Аҳоли рўйхатида жойлашган ва бутун Финляндияни ўз ичига олган ахборот таркиби ўзининг кенг қамровли эканлиги билан ажралиб туради. Ахборот базаси мамлакатнинг ҳар бир фуқароси ҳақидаги аниқ ва эътиборга лойиқ маълумотларни ўз ичига олади. Фуқаро

тўғрисидаги энг муҳим маълумот унинг исми ва фамилияси, туғилган жойи ва санаси ҳамда фуқаролигидир. Шунингдек, фуқаронинг oilавий аҳволи (турмуш ўртоғи, фарзандлари ва ота-онаси) ҳамда яшаш жойи тўғрисидаги маълумот ҳам муҳимдир.

Замонавий босқич XX асрнинг ўрталаридан бошланди. Осиёнинг қатор мамлакатларида, шунингдек, Африкада аҳолини рўйхатга олиш ўтказилди. Бу янги мустақил давлатлар пайдо бўлиши билан боғлиқ эди. Ўтган асрнинг 70 йилларида Яман, БАА, Саудия Арабистони каби мамлакатларда биринчи мартаба аҳоли рўйхатдан ўтказилди. XX асрнинг охирига келиб, аҳолини рўйхатга олиш дунёнинг деярли барча ҳудудини қамраб олди.

Мейирхан БОРАНБАЕВ,
туман Статистика бўлими етакчи мутахассиси.

ИНСОННИНГ ҚАЙСИ ОРГАНЛАРИ ЎЗИНИ ТИКЛАШ ХУСУСИЯТИГА ЭГА?

Инсон организми – бу мукаммал биологик механизм. Ҳар сонияда организмимизда салкам 4 миллион, бир суткада эса 330 миллиардга яқин хужайралар янгиланади. Бу жараён “регенерация” деб аталади.

Хўш, инсоннинг яна қайси органлари ўзини регенерация қилиш хусусиятига эга?

Жигар – инсон организмнинг асосий фильтри. Бу ноёб орган қонни токсинлардан тозалаш ва муҳим моддаларни синтез қилиш каби функцияларни бажариш билан бирга, турли омиллар таъсирида зарарлангандан сўнг ўз фаолиятини тиклаш хусусиятига ҳам эга. Жигарнинг 75 фоизгача қисми олиб ташланганда ҳам у бир неча ой ичида асл ҳажмига қайта олиши мумкин. Бу жараён жигарнинг асосий хужайралари ҳисобланган гепатоцитлар бўлиниши ва улар нобуд бўлган ёки зарарланган хужайрларнинг ўрнини босиши орқали рўй беради.

Тери – инсон организмни ташқи таъсирлардан ҳимоя қилувчи биринчи “тўсиқ” ҳисобланади. Терида кичик яра ёки жароҳат пайдо бўлганда эпидермис хужайралари – кератиноцитлар ўзини ўзи тиклашни бошлайди. Бунда, худди жигарда бўлгани каби хужайралар бўлиниб зарарланган хужайрлар ўрнида янгиларини шакллантиради. Бунинг натижасида эса яра тезроқ тузалиб, терининг силлиқлиги ва таранглиги қайтади.

Суяк тўқималари ҳам ўзини регенерация қилиш хусусиятига эга, аммо бунинг учун кўпроқ вақт талаб этилади. Суяк тўқималарининг тикланишида икки хужайра – остеобластлар ва остеокластлар асосий роль ўйнади. Уларнинг бири янги суяк тўқимасининг шаклланишига жавоб берса, иккинчиси зарарланган хужайрларни организмдан олиб ташлаш (резорбция) вазифасини бажаради. Яъни, суяк тўқимаси шикастлангандан сўнг остеобластлар янги тўқималар, коллаген қатламларини шакллантириб, уларни кальций ва фосфор каби минераллар билан бойитади. Бу шикастланган бўғимнинг мустаҳкамлигини тиклаш имконини беради. Мунтазам жисмоний машқлар ҳам шикаст етган соҳада қон айланиши ва тикланиш жараёни тезлашишига ёрдам беради.

Умуман олганда, инсон организмдаги кўплаб орган, тўқима ва мушаклар у ёки бу даражада ўзини регенерация қилиш хусусиятига эга. Соғлом турмуш тарзи, жисмоний фаоллик, тўғри овқатланиш эса ичимизда узлуксиз кечаётган янгиланишлар жараёни-ни янада тезлаштириш имконини беради.

Гулшода ХАТАМОВА,
Саломатлик ва стратегик
ривожлантириш институти
Конимех туман бўлимаси хамшираси.

АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИШЛАР ТАҲЛИЛИ

Вилоят прокуратураси томонидан Вазирлар Маҳкамасининг 22.06.2021 йилги “Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятига

“Е-qaror” электрон тизимини жорий этиш чора - тадбирлари тўғрисида”ги 390 - сонли Қарори ижроси таҳлил қилинди. Таҳлилларга кўра, маҳаллий давлат ҳокимияти органларида идоравий назорат тўғри йўлга қўйилмаганлиги, ходимлар Ҳукумат қарорининг мазмун ва моҳиятини тўлиқ тушуниб етмаганлиги, унда белгиланган талабларни нотўғри талқин қилганлиги оқибатида, ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилишда турли хил амалиёт шаклланиб, қонун бузилиши ҳолатларига йўл қўйиб келинган. Жумладан, вилоят, туман ва шаҳар ҳокимликлари томонидан жорий йилда (01.11.2023 йил ҳолатига) 2 091 та қарор, 2 175 та фармойиш ва 1 556 та халқ депутатлари Кенгаши қарорлари, жами 5 822 та ҳужжатлар қабул қилинган. Шундан, 4621 таси (1 330 та қарор, 1992 та фармойиш, 1299 та Кенгаш қарори) очик ҳолатдаги ҳамда 1 201 таси (761 та қарор, 183 та фармойиш, 257 та Кенгаш қарори) яширин ҳолатдаги “Е-qaror” электрон тизимига бириктирилган ҳужжатларни ташкил қилган.

Ушбу ҳужжатлар ўрганилганда норматив ҳужжатларга зид равишда 251 таси (75 та қарор, 22 та фармойиш, 154 та Кенгаш қарори) ёпиқ ҳамда 22 таси (22 та қарор) очик тарзда “Е-qaror” электрон тизимига бириктирилганлиги аниқланди. Ушбу ҳужжатларнинг жамоатчилик назоратидан яширилиши ва тизимда очик эълон қилинмаслигининг асослиги ўрганилганда, тизимли хато - камчиликларга йўл қўйилганлиги аниқланди.

Хусусан, Зарафшон шаҳар ҳокимлиги томонидан барча фойдаланиши мумкин бўлган қарорлардан 51 таси шахсга оид ёки фойдаланиши чекланган маълумотлар борлиги важи билан тизимда очик эълон қилинмаган.

Шу жумладан, ҳокимлик томонидан хизмат турар - жойи сифатида ёки ижара шартномаси шартлари асосида турар - жой ажратиш тўғрисидаги қарорлардан 60 таси тизимга очик жойлаштирилган бир пайтда, худди шу мазмундаги 45 та қарорлар жамоатчиликнинг эътиборидан яширилган.

Ёки, Қизилтепа туман ҳокимининг 24.08.2023 йилдаги “Меҳнат шартномаси тузиш тўғрисида”ги 4-5-72-Q/23-сонли қарори, Нурота туман ҳокимининг 24.03.2023 йилги 46-5-74-F/23, 12.04.2023 йилги 60-5-74-F/23-сонли “Ҳоким ўринбосари Ф.Ёдгоров ва 7 нафар ҳоким ёрдамчиларига интизомий чора қўллаш тўғрисида”ги фармойишлари асоссиз равишда тизимда очик эълон қилинмаган.

Ўзбекистон Республикасининг 02.01.2014 йилдаги “Васийлик ва ҳомийлик тўғрисида”ги ЎРҚ-364-сонли қонуннинг 21-моддасида васий ёки ҳомий бўлиш истагини билдирган шахс ҳақидаги васийлик ва ҳомийлик органи томонидан олинган маълумотлар махфий бўлиб, ошкор қилинмаслиги белгиланган.

Бироқ, васийлик ва ҳомийликка оид, во-яга етмаган ва унга васий (ҳомий) этиб тайинланган шахсларнинг исми ва шахсга оид бошқа маълумотларни ўз ичига олган 22 та (Карманада 17, Хатирчида 2, Навбаҳор туман-

ни, Ғозғон ва Навоий шаҳарларида 1 тадан) қарорлар тизимда очик эълон қилинган.

Вазирлар Маҳкамасининг 22.06.2021 йилдаги 390-сонли қарори билан тасдиқланган “Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг қарорлари ва фармойишларини “Е-qaror” электрон тизими орқали ишлаб чиқиш, келишиш, қабул қилиш (чиқариш), рўйхатга олиш ва эълон қилиш тартиби тўғрисида”ги Низомнинг 16 - бандида, хизмат доирасида фойдаланиш учун мўлжалланган ҳужжатлардан ташқари ҳужжатлар “Е - qaror” электрон тизимида автоматик тарзда эълон қилиниши белгиланган.

Бироқ, ҳудудий ҳокимликлар томонидан айрим ҳужжатларни очик эълон қилмаслик мақсадида, хизмат доирасида фойдаланиш учун мўлжалланмаган ҳужжатларга ҳам бундай “мақом” берилиб, асоссиз равишда тизимда ёпиқ эълон қилинган. Мисол учун, Нурота туман ҳокимлиги томонидан 31.03.2023 йилда туман ҳокимлиги рақамли иқтисодиётни ривожлантириш менежери У.Шомуродов ва девонхона мудир О.Маҳмудовларга интизомий жазо қўллаш тўғрисидаги фармойишлар “Хизмат доирасида фойдаланиш учун мўлжалланган” сифатида қабул қилиниб, тизимда яширилган.

Ёки, Халқ депутатлари Кармана туман Кенгашининг “Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳолини қўллаб - қувватлаш мақсадида “Саховат ва кўмак” жамғармасидан маблағ ажратиш тўғрисида”ги 21 та қарорлар “ХДФУ” сифатида қабул қилинган. Аксинча, вилоят ҳокимининг 15.06.2023 йилдаги 66-5-0-F-сонли “Хизмат доирасида фойдаланиш учун” чиқарилган фармойиши ижросини таъминлаш мақсадида, Зарафшон шаҳар (19.06.2023 й. - 102-5-78-F-сон) ҳамда Кони-мех туман ҳокимликлари (22.06.2023 й. - 88-5-70-F-сон) томонидан очик фармойишлар қабул қилиниб, тизимга жойлаштирилган.

Вазирлар Маҳкамасининг 22.06.2021 йилдаги 390-сонли қарорининг 3-банди “г” кичик бандида, қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ махфий маълумотларни ўз ичига олган қарорлар ва фармойишларни “Е-qaror” электрон тизими орқали қабул қилишга йўл қўйилмаслиги белгиланган бўлсада, Кармана туман ҳокимлиги томонидан фармойиш қабул қилинишида махфийлик талабларига риоя қилинмаган.

Вазирлар Маҳкамасининг 22.04.2020 йилдаги ВМФ-213-Ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган “Саховат ва кўмак” жамғармаси тўғрисида”ги Низом талабларига кўра жамоатчилик назорати субъектларига жамғарма ва унинг ҳудудий бўлинмалари маблағларининг сарфланиши устидан кунлик жамоатчилик назорати ўрнатилиши белгиланган.

Бироқ, Халқ депутатлари туман - шаҳар Кенгашларининг “Саховат ва кўмак” жамғармасидан маблағ ажратиш тўғрисида жами 110 та қарорлари “Е-qaror” электрон тизимида ёпиқ ҳолатда эълон қилинган.

Бундай қарорлар, Ғозғон шаҳрида 5, Зарафшон шаҳрида 6, Навоий шаҳрида 7, Томди ва Қизилтепа туманларида 8 тадан, Кони-мех, Навбаҳор ва Хатирчи туманларида 9

тадан, Учқудукда 15 ва Кармана туманида 22 тани ташкил қилади. Туман - шаҳар ҳокимликларида “Е-qaror” электрон тизимдан фойдаланишда ягона амалиёт йўлга қўйилмаганлиги оқибатида, бир хил турдаги ҳужжатларни айримлари “Фармойиш”, бошқалари эса “Қарор” сифатида қабул қилинган.

Мисол учун, маҳаллий бюджет даромадларининг орттириб бажарилган қисми ҳисобидан маблағ ажратилиши ҳокимларнинг фармойишлари асосида амалга ошириладиган бўлсада, ушбу масалада Хатирчи туманида 3 та, Қизилтепа, Нурота ва Учқудук туманларида 1 тадан ҳолатда қарорлар қабул қилинган. Ёки, Вазирлар Маҳкамасининг 27.04.2016 йилдаги 123-сон қарори билан тасдиқланган “Вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликларининг бошқарув аппаратлари тўғрисида”ги намунавий Низомида, котибият мудир, мутахассис, ҳокимнинг ёрдамчиси ва бошқарув аппаратининг бошқа ходимлари ҳокимнинг қарори билан лавозимга тайинланиши ва лавозимдан озод этилиши белгиланган.

Бироқ, Навоий шаҳар, Навбаҳор, Нурота, Учқудук, Хатирчи ва Томди туман ҳокимликлари томонидан ҳоким ёрдамчилари лавозимига ҳокимнинг фармойиши билан тайинлаш ёки лавозимидан озод қилишдек нотўғри амалиёт шаклланган.

Мисол учун, Хатирчи туман ҳокимининг 13.05.2023 йилдаги 127-5-77-Q/23-сонли қарорига асосан “Майдон” маҳалласи ҳоким ёрдамчиси Қ.Баратов билан меҳнат шартномаси бекор қилинган бўлса, орадан 12 кун ўтиб, 25.05.2023 йилда “Хўжақуллобод” маҳалласи ҳоким ёрдамчиси А.Жамилов 93-5-77-F-сонли фармойиш билан ишдан бўшатишган.

Худди шундай, барча ҳокимликларда ходимларни интизомий жавобгарликка тортиш ва рағбатлантириш фармойиш билан расмийлаштириладиган бир пайтда, ушбу масалада Навбаҳор туманида 8 та, Навоий шаҳрида 7 та ва Хатирчи туманида 1 та ҳолатда қарор қабул қилинган.

Аниқланган қонун бузилиши ҳолатларини бартараф этиш ҳақида вилоят ҳокими номига тақдимнома киритилиб, 5 нафар масъул ходимларнинг интизомий жавобгарлик масаласи ҳал этилди.

Қарорда белгиланган талабларни барча ходимларнинг эътиборига етказиш, уларнинг билими ва малакасини ошириш мақсадида онлайн ўқув - семинарлари ташкил қилинди.

Худудларда ягона амалиётни шакллантириш учун адлия бошқармаси билан ҳамкорликда услубий тавсиялар ишлаб чиқилиб, туман ва шаҳар ҳокимликларига тақдим қилинди.

Ш.ҲАҚБЕРДИЕВ,
Бош прокуратура бошқарма прокурори.
Ф.ТУРСУНОВ,
Навоий вилоят прокуратураси бўлим
катта прокурори.
Ў.НОРМУРОДОВ,
туман прокурори ёрдамчиси.

“МАҲАЛЛА ЕТТИЛИГИ” УЧУН КРІ БЕЛГИЛАНДИ

“Маҳалла институтининг жамият-даги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўлин сифатида ишлашини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида” Президент Фармони қабул қилинди.

Фармон билан “маҳалла еттилиги” (аввалги “бешлик”) ҳар бир аъзосининг вазифалари белгилаб берилди.

“Еттилик” таркибига қуйидагилар киради:

- маҳалла раиси;
- ҳоким ёрдамчиси;
- ёшлар етакчиси;
- хотин-қизлар фаоли;
- профилактика инспектори;
- ижтимоий ходим;
- солиқ инспектори.

Маҳалла раисининг асосий вазифаларига қуйидагилар киради:

- маҳалла ободлигини таъминлаш, шу жумладан, “Обод маҳалла”, “Обод кўча”, “Обод хонадон” мезонларини жорий этишда аҳолининг фаол иштироки ва масъулиятини ошириш, “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси доирасида дарахт ва бута кўчатлари экиш бўйича тарғибот ишларини амалга ошириш.

- миллий кадриятлар, урф-одатлар ва анъаналарни тарғиб қилиш, соғлом ижтимоий-маънавий муҳитни сақлаш, тўй-маросимларни исрофгарчиликларсиз ихчам ўтказилишини таъминлаш.

- маҳаллага бириктирилган давлат органлари вакилларини аҳоли муаммоларини ҳал этишга сафарбар этиш ва муаммоларга ечим топишини таъминлаш.

Ҳоким ёрдамчисининг асосий вазифаларига қуйидагилар киради:

- доимий даромад манбаига эга бўлмаган ишсиз аҳолини касб-ҳунар ва тадбиркорликка ўқитиш ҳамда бандлигини таъминлаш чораларини кўриш.

- маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳолининг тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш мақсадида кредит ва субсидиялар ажратилишида қўмаклашиш.

- ўзини ўзи банд қилган ҳамда ташаббускор фуқароларнинг тадбиркорликка қизиқишларини аниқлаш, уларнинг кичик бизнес субъектига айланишига ёрдам бериш.

Ёшлар етакчисининг асосий вазифа-

ларига қуйидагилар киради:

- маҳаллаларда ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш, жумладан уларни “Беш ташаббус олимпиадаси”да иштирок этишга жалб этиш;

- ишсиз ёшлар ва мактаб битирувчилари бандлигига қўмаклашиш, жумладан “Ёшлар бандлиги дастури”ни маҳаллада амалга ошириш;

- давлат қўмағига муҳтож “оғир” тоифадаги ёшларнинг ҳаётда ўз ўрнини топишларига қўмаклашиш.

Хотин-қизлар фаолининг асосий вазифаларига қуйидагилар киради:

- “Соғлом оила — соғлом жамият” тамойилларини тарғиб қилиш, хусусан яқин қариндошлар ўртасидаги ва эрта никоҳнинг олдини олиш, репродуктив саломатликни яхшилаш, оилавий кадриятларни мустаҳкамлаш бўйича мақсадли чора-тадбирларни амалга ошириш;

- хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, таълим имкониятларини кенгайтиришга қўмаклашиш;

- хотин-қизларнинг муаммоларини ўз вақтида аниқлаш, ушбу муаммолар юзасидан давлат органлари ва ташкилотларга мурожаат қилиш, ёрдамга муҳтож бўлган ва оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолган хотин-қизларга ижтимоий-ҳуқуқий, психологик ва моддий ёрдам кўрсатишни ижтимоий ходим билан биргаликда ташкил этиш.

“Маҳалла еттилиги”нинг фаолияти асосий самарадорлик кўрсаткичлари (КПИ) бўйича баҳоланади.

Фармон билан:

- Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси, унинг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар бошқармалари ҳамда туман (шаҳар) бўлимлари;

- ҳукуматда “еттилик”ни қўллаб-қувватлаш бўлими ташкил этилади.

2024-йил январ ойидан бошлаб барча туман ва шаҳарларда “Маҳалла бюджети” тизими амалиётга жорий этилади.

Н. ИСРОИЛОВ,

туман адлия бўлими бошлиғи.



КИТОБЛАР УЛАШАР ЗИЁ

Конимех тумани Ахборот-кутубхона маркази жорий йил 6 ой давомида 253 номда 698 нусхадаги адабиётлар билан бойитилди. Шунингдек, китоб жавонларимиздан Ўзбекистон, Туркия, Қозоқстон, Қирғизистон, Озарбайжон. Туркменистон ва Венгрия давлатларининг атоқли шоир ва адибларининг асарлари ҳам ўрин олган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2019 йил 15 октябр куни Озарбайжон пойтахти Боку шаҳрида бўлиб ўтган Туркий давлатлар ҳамкорлик кенгашининг эттинчи Саммитида ташкилотга аъзо давлатлар адабиётининг энг сара намуналаридан иборат «Туркий адабиёт дурдоналари» деб номланган 100 жилдлик китоблар туркумини ҳар бир мамлакатнинг она тилида нашр этиш ғоясини илгари сурган эди. Ушбу ғоя асосида биринчи бўлиб, Ўзбекистонда мана шу муқташам адабий мажмуа яратилди.

Китоб фондимиз ўзбек адабиёти намоёндалари Ойбек. Миртемир, Чўлпон, Ғ.Ғулом, Абдулла Қодирий. Турк адабиёти намоёндалари П. Гунтекин Я.Камол, Азиз Несин, Ҳусайин Оқиз. Қозоқ адабиёти намоёндалари Абай, Жамбул. Мухтор Аvezов. Сабит Муқонов ва Қирғиз ва Қорақалпоқ адабиёти намоёндаларининг асарлари жамланган 100 жилдлик адабиётлари билан бойитилиб, китобхонларга тақдим этилди.

Сиз ҳам кутубхонамизга ташриф буюриб, ушбу адабиётларимиздан мутолаа қилиб, баҳраманд бўласиз деган умиддамыз!

А. ШАМУРАТОВА,
туман Ахборот-кутубхона
маркази мутахассиси.

“Кенимех таңы” газеті редакцияси мемлекеттік кәсіпорны	Редактор үшін Надыра ҚАЛМАНБЕТОВА.	Кезекші редактор: Жарасқан МЫРЗАМУРАТОВ.	Редакцияға келген қолжазбаларға жауап қайтарылмайды және оқырман пікіріне редакция көзқарасын білдірмейді.	беттеуші-диз@айнер Лобар МАДИЕВА.
Құрылтайшы: Кенимех ауданы әкімдігі	Газет Науаи облыстық баспасөз және ақпарат басқармасында 2011 жыл 9 сентябрьде 07-003 санымен қайта тәркеуге алынған	МЕКЕН ЖАЙЫМЫЗ: 210500. Науаи облысы, Кенимех қалашығы, Абай көшесі, 13 үй тел/факс: 0(436) 512-20-37 kenimix-tani@inbox.uz		Газет “Кенимех тоңы” газеті редакциясында теріліп, беттелді және “Do’slik bayrog’i” ва “Зна- мя дружбы” газеті баспаханасында офсет әдісімен 300 нұсқада басылды.
Газет айына бір рет шығады	индекс-390		Баспахананың мекен жайы: Науаи қаласы, Науаи көшесі, 36 үй. Қағаз көлемі А-3. Газеттің сапасы үшін баспахана жауапты. Телефон: 0 (436)224-40-03	ISSN 2010-6554 7 720 13 555 000